

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

ILXOMBЕКOV JASURBEK ILXOMBЕК O‘G‘LI

**INTERNETDAN AXBOROT OLISHNING
KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY KAFOLATLARI**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy(PhD)

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Ихombekov Jasurbek Ихombek o‘g‘li

Internetdan axborot olishning konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlari.....3

Иkhombekov Jasurbek Ихhombek ugli

Constitutional and legal guarantees of obtaining information from the Internet.....29

Ихombekov Jasurbek Ихombek ugli

Конституционно-правовые гарантии получения информации из Интернета.....53

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

List of published scientific works

Список опубликованных научных работ.....57

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

ILXOMBЕКOV JASURBEK ILXOMBЕК O‘G‘LI

**INTERNETDAN AXBOROT OLIHNING
KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY KAFOLATLARI**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Yu845-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus, (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Axmedov Davran Kuvanovich,
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Ismailov Baxodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor

Abdullayev Javlonbek Murodjonovich
yuridik fanlar nomzodi

Yetakchi tashkilot:

**Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston
Respublikasi Milliy markazi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 22-iyun kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1268-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 7-iyun kuni tarqatildi.

(2024-yil 7-iyundagi 10-son reyestr bayonnomasi).

R.R.Xakimov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, yuridik fanlari doktori, professor

F.B.Mahmudov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD)

I.R.Bekov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik
fanlari doktori, professor.

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda iqtisodiyot, siyosat, mudofaa, ta'lim, madaniyat va boshqa ko'plab sohalar, shuningdek barcha ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga bevosita axborot almashinuvi o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bularning barchasi esa zamonaviy dunyo bugungi kunda axborotsiz mavjud bo'la olmasligidan dalolat bermoqda. Dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida doimiy ravishda so'z erkinligi, axborot erkinligi, axborot olish va tarqatish huquqini amalga oshirish jarayonlarining huquqiy jihatlari bo'yicha tahlillar amalga oshirilib kelinmoqda. So'z erkinligi huquqi to'g'risidagi normalar barcha inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarda o'z aksini topgan, xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasida ham shu kabi normalar batafsil ochib berilgan. Bundan tashqari 2011-yilgi BMT rezolyutsiyasida Internetdan foydalanish huquqi e'tirof etilgan. BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi ham Internetdan foydalanishni insonning asosiy huquqlariga tenglashtirish bo'yicha rezolyutsiya qabul qilgan. Bugun Internet tarmog'ining faoliyati bilan bog'liq munosabatlarning davlat va jamiyat hayotida jadallik bilan ahamiyati ortib borayotganligiga qaramay, qonun normalari bilan to'liq tartibga solinmagan sohalardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu jarayondagi asosiy vazifalardan biri esa mazkur munosabatlarni huquqiy tartibga solishning zarur chorasini topish hisoblanadi. Axborot olish bilan bog'liq munosabatlar konstitutsiyaviy huquq normalari bilan tartibga solinishi kerak, chunki ular fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish jarayonida bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

Jahonda bugungi kunda axborot-kommunikatsiya sohasi jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Ushbu rivojlanish bevosita axborot almashinuvi jarayoniga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Axborot almashinuvi jarayonida gegemon soha sifatida esa Internet o'z o'rnini shiddat bilan kengaytirmoqda. Hozirga kelib axborot sohasida ochiq siyosatga ega bo'lgan jamiyatlar axborot sohasida cheklovlariga ega bo'lgan va jahonda yuz berayotgan muammolardan o'rab olingan jamiyatlarga nisbatan ancha demokratik, kuchli hamda hayot bilan hamnafas rivojlanmoqda. Ta'kidlash lozimki, axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquq insonning asosiy huquqlaridan biri bo'lib, ayni damda so'z erkinligining va dunyoqarash erkinligini tanlashning tashqi ifodasi sifatida ham ularning kafolati sifatida ham o'zini namoyon qiladi. Statistik ma'lumotlarda keltirilishicha, 2024-yil 1-mart holatiga ko'ra bugungi kunda jahonda 5,35 milliard Internet foydalanuvchisi bor. Demak, hozirda butun dunyo aholisining 66 % Internetga ega¹. 2024-yilda 1-mart holatiga ko'ra esa ijtimoiy tarmoqlardan 5,04 milliard foydalanuvchilar foydalanib kelmoqdalar, bu butun dunyo aholisining 60 % dan sal kamrog'ini tashkil qiladi². Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda Internetdan foydalanuvchilar soni 2016-yilda 12,1 mln bo'lgan bo'lsa, 2024-yil boshiga kelib ikki barobarga, ya'ni 33,81 % mln.dan oshdi, shuningdek, mamlakatimiz aholi yashash

¹ <https://www.forbes.com/home-improvement/internet/internet-statistics/>

² <https://www.statista.com/statistics/272014/global-social-networks-ranked-by-number-of-users/>

maskanlari hududining Internet tarmogʻi bilan qamrovi 2016-yildagi 28% dan 2024-yilda 98% ga yetgan³.

Oʻzbekistonda Internet tarmogʻining rivojlanishi natijasida milliy qonunchiligimizning ushbu sohada mavjud normalarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada soʻnggi yillarda hukumatimiz tomonidan ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yangi tahrirda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli moddalarida fuqarolarimizning soʻz erkinligi, axborotni izlash, olish va tarqatish, shuningdek Internetdan foydalanish huquqlari mustahkamlab qoʻyilgan. Shuni alohida taʼkidlash joizki, Internetni huquqiy jihatdan rivojlantirishda xorijiy tajriba va amaliyotdan foydalanish soha rivoji uchun jiddiy yutuqlarni olib keladi. Zero, ushbu sohada milliy qonunchiligimiz xalqaro amaliyotdan orqada qolmoqda. Ushbu jarayon esa global tarmoqning milliy segmenti rivojlanishi, soʻz erkinligi, Internet orqali maʼlumot olish huquqi va boshqa konstitutsiyaviy huquqlarni amalga oshirish jarayonlarini sekinlashtiradi va uni rivojlantirish jarayonlariga toʻsqinlik qiladi. Internet hozirda keng imkoniyatlar makoniga aylanishi bilan global tarmoq anʼanaviy ommaviy axborot vositalarining oʻrnini egallab olganligi barchaga maʼlum. Bu esa axborot muhitining holati, foydalanuvchilarning huquqiy va axborot madaniyati darajasiga moslashtirilgan global tendensiyadir. Zero, OAV faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish konstitutsiyaviy huquq uchun anʼanaviy yoʻnalish hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari toʻgʻrisida”gi (2007), “Axborot olish kafolatlari va erkinligi toʻgʻrisida”gi (1997), “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari toʻgʻrisida”gi (2002), “Axborotlashtirish toʻgʻrisida”gi (2003) qonunlari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son farmoni bilan tasdiqlangan “2017 – 2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha harakatlar strategiyasi”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan “2022 – 2026-yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi” farmoni, 2018-yil 24-maydagi PQ-3737-son “Oʻzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetini tashkil etish toʻgʻrisida”gi qarori, 2019-yil 27-iyundagi PQ-4366-son “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini taʼminlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-sentabrdagi 707-son qarori “Butunjahon Internet tarmogʻida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, qarori va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni maʼnaviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish ustuvor yoʻnalishi” doirasida tayyorlangan boʻlib, dissertatsiya 12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Maʼmuriy huquq. Moliya va bojxona huquqi yoʻnalishiga mos keladi.

³ <https://datareportal.com/reports/digital-2024-uzbekistan>

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda yuridik fanlar doirasida Internetdan axborot olishning konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlari maxsus monografik tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Shu bilan birga, tadqiqot mavzusining u yoki bu jihatlari I.Rustambekov, B.Xodjayeov, J.Abdullayev, A.Yo'ldoshev, N.Nugmanov, A.Amanov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan⁴.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlarda Internetdan axborot olishning konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlariga taalluqli ilmiy izlanishlar N.B.Baranova, A.A.Ishina, A.V.Krotov, T.Sh.Izzatov, T.A.Timerbaev, A.Yu.Proxorov, Yu.M.Lotman, S.V.Petrovskiy, S.Simonovich, G.Yevseev, O.N.Dudko, T.J.Baljirova, A.N.Sheremet, S.V.Malaxov, L.Kupriyanov, N.Kulicheva, B.V.Kristalniy, Yu.M.Nesterov, A.A.Chernov, V.I.Shalak, A.N.Kochetov, L.G.Lapo, M.A.Pogorelova, A.A.Tedeev, I.M.Rassolov, A.A.Lukyanov, S.V.Mixaylov, Ye.V.Altovskiy, A.Malkevich, Ya.N.Zasurskiy, A.Skvortsov va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan⁵.

Xorijiy mamlakatlarda esa Y.Kurbaliyya, E.Gelbstayn, S.Baldi, V.Radunovich, K.Myoller, A.Amur, Ya.Akdeniz va boshqa olimlar tomonidan Internetdan axborot olish bilan bog'liq masalalar talqin qilingan⁶.

Biroq yuqorida keltirilgan tadqiqotlar tahlili Internetdan axborot olishning nazariy va amaliy muammolari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi, shuningdek ushbu sohaga oid xalqaro hujjatlar hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida kompleks tadqiqot ishi sifatida alohida o'rganilmaganidan dalolat beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, "Rivojlangan davlatlar qonunchilik amaliyoti va xorijiy davlatlarning ijobiy yutuqlarini nazariy tadqiq etish asosida olingan natijalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasida Internetdan erkin tarzda axborot olishning konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlari bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- Internet tarmog'idan axborot olishning huquqiy tabiatini o'rganish;
- axborot olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquq nuqtayi nazaridan Internetning huquqiy ahamiyatli xususiyatlarini o'rganish;
- Internetdan foydalanish chog'ida yuzaga keladigan cheklovlarni aniqlash va ularning salbiy jihatlari yoritib berish;
- axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqning ta'minlanishida Internet tarmog'ining ahamiyatini yoritib berish;
- xorijiy mamlakatlar tajribasida Internetdan axborot olishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

⁴ Mazkur ilmiy ishlarning to'liq nomi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

⁵ Mazkur ilmiy ishlarning to'liq nomi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

⁶ Mazkur ilmiy ishlarning to'liq nomi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

- Internetdan axborot olish jarayonida aniqlangan muammolarni bartaraf etishning samarali yo‘nalishlarini belgilash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti O‘zbekistonda Internetdan axborot olish jarayonida yuzaga keladigan konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar tizimi sanaladi.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalari, xalqaro hujjatlarda internetdan axborot olish jarayonida yuzaga kelayotgan amaliyotdagi mavjud muammolar, masalaga oid statistik ma’lumotlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda bilishning formal-mantiqiy, analitik, tarixiy-huquqiy, qiyosiy, tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, statistik, tizimli-tuzilmaviy, so‘rovnoma, formal-yuridik kabi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

axborot resurslaridan foydalanishda tenglik, erkinlik, shaxsiy hayot daxlsizligi prinsiplarini ta‘minlash maqsadida axborotning mulkdori yoki egasi tomonidan qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etgan holda axborot resurslaridan axborot olish tartibini aniqlashi zarurligi asoslab berildi;

shaxslarning axborotdan samarali foydalanish, asosli qarorlar qabul qilish, o‘z huquqlarini himoya qilish va axborot jamiyati rivojiga hissa qo‘shishini ta‘minlash maqsadida “axborot resursi” tushunchasining mazmunini axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma’lumotlar banki, ma’lumotlar bazasi, shu jumladan axborot tizimlarida ochiq shaklda joylashtiriladigan yoxud e‘lon qilinadigan “audio”, “video”, “grafik” va “matnli axborot”dan iborat bo‘lishi ilmiy-nazariy asoslab berildi;

davriy bosma nashr elektron shaklining huquqiy tabiatiga oid xalqaro standartlar va doktrinal qarashlardan kelib chiqqan holda axborotning qonuniyligi, ishonchliligi va sifati, axborotdan foydalanish imkoniyati va uning xavfsizligini ta‘minlash maqsadida elektron shakldagi davriy bosma nashrning axborot tashuvchi jismlarga yozilgan, shuningdek Internet jahon axborot tarmog‘iga joylashtirilgan, elektron texnik qurilmalar yordamida foydalanishga mo‘ljallangan gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqa davriy bosma nashrlardan iborat ekanligi ilmiy asoslab berildi;

axborot olishda tenglikni ta‘minlash, zarur axborotni o‘z vaqtida olish va jamoatchilikka yetkazishni ta‘minlash maqsadida ommaviy axborot vositasining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to‘g‘risida axborot olishga doir, shuningdek mansabdor shaxslarning intervyusini tashkil etish to‘g‘risidagi so‘roviga javob olish maqsadida ularning ushbu so‘roviga javob ko‘pi bilan yetti kun muddatda ko‘rib chiqilishi zarurligi asoslab berildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Internet”, “Ijtimoiy tarmoq”, “Axborot”, “Internet etikasi”, “Blogger” kabi tushunchalarga nisbatan mualliflik ta‘riflari ishlab chiqildi;

Internetdan foydalanishda vujudga keladigan munosabatlar, ayniqsa axborot olishdagi mavjud hamda o‘z yechimini topishi lozim bo‘lgan masalalar xalqaro tajribani inobatga olgan holda qabul qilinadigan Internet to‘g‘risidagi qonun bilan tartibga solinishi lozimligi asoslab berildi;

Internet to‘g‘risidagi qonun qabul qilinishi natijasida Internet tarmog‘idan foydalanish jarayonida vujudga keladigan munosabatlardan kelib chiqadigan

majburiyatlarni bajarish, qaysi vaqtdan boshlab bunday majburiyatlar bajarilgan deb hisoblanishini belgilash va ular bajarilganini hujjatlar bilan tasdiqlash masalalari o‘z yechimini topishi izohlab berildi;

ijtimoiy tarmoqlar bloklanishining “ijtimoiy” va “iqtisodiy” ta’sirlari, ya’ni ushbu holatda vujudga keladigan salbiy oqibatlar ilmiy asoslab berildi;

Internetda vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga yo‘naltirilgan qonunchilik bazasi tahlil etilib, tegishli huquqiy asoslarning shakllanish bosqichlari va rivojlanish dinamikasini amaliyotga joriy etish kerakligi ilmiy izohlab berildi;

Tadqiqot natijasida Internetdan foydalanish to‘g‘risidagi qonun loyihasi ishlab chiqildi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutiga taqdim qilindi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo‘llash amaliyoti, so‘rovnomalar, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish natijalari asosida umumlashtirilgan va tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Rivojlangan davlatlar tajribasi va milliy qonunchilik normalarining o‘zaro tahlili asosida xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o‘tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan Internetdan axborot olish masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish, qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda “Konstitutsiyaviy huquq”, “Qiyosiy konstitutsiyaviy huquq”, “Davlat va huquq nazariyasi” kabi fanlarni o‘qitish va ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda, shuningdek Internetda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan konstitutsiyaviy-huquqiy masalalar bo‘yicha o‘quv kurslarida, maxsus kurslar uchun uslubiy materiallar ishlab chiqishda, o‘quv dasturlari, o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlashda va ilmiy faoliyatda ham foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ushbu natijalaridan milliy qonunchiligimiz amaldagi normalarining Internetda axborot olish bilan bog‘liq bo‘lgan qismlariga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritishda, normativ-huquqiy hujjatlarni va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda, shuningdek, o‘quv seminarlari va treninglarda, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Internetdan axborot olish huquqini ta’minlashni takomillashtirish sohasidagi tadqiqot bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

axborot resurslarining mulkdori yoki egasi tomonidan qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etgan holda axborot resurslaridan axborot olish tartibini aniqlashi zarurligiga oid taklif O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunida o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2023-yil 13-oktabrdagi 02-08-372-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinganligi axborot

resurslaridan axborot olish tartibini axborot resurslarining mulkdori yoki egasi qonun hujjatlari bilan emas, balki qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etgan holda aniqlashiga xizmat qilgan;

“axborot resursi” tushunchasi bu axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma’lumotlar banki, ma’lumotlar bazasi, shu jumladan axborot tizimlarida ochiq shaklda joylashtiriladigan yoxud e’lon qilinadigan “audio”, “video”, “grafik” va “matnli axborot” ekanligiga oid taklif O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunida o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2023-yil 13-oktabrdagi 02-08-372-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinganligi axborot resursining nafaqat axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma’lumotlar banki, ma’lumotlar bazasi, balki axborot tizimlarida ochiq shaklda joylashtiriladigan yoxud e’lon qilinadigan “audio”, “video”, “grafik” va “matnli axborot”dan iborat bo‘lishiga xizmat qilgan;

davriy bosma nashrning elektron shakli – axborot tashuvchi jismlarga yozilgan, shuningdek Internet jahon axborot tarmog‘iga joylashtirilgan, elektron texnik qurilmalar yordamida foydalanishga mo‘ljallangan gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqa davriy bosma nashrlar ekanligiga oid taklif O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuni 35¹-moddasida o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2023-yil 13-oktabrdagi 02-08-372-son dalolatnomasi). Ushbu taklif Internet tarmog‘idan axborot olishni huquqiy jihatdan tartibga solish va bunda davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning majburiyatlarini konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan tadqiq qilishiga xizmat qilgan;

ommaviy axborot vositasining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to‘g‘risidagi axborotni olishiga doir, shuningdek mansabdor shaxslarning intervyusini tashkil etish to‘g‘risidagi so‘rovi ko‘pi bilan yetti kun muddatda ko‘rib chiqilishi zarurligiga oid taklif O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasida o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2023-yil 13-oktabrdagi 02-08-372-son dalolatnomasi). Ushbu taklif axborot erkinligi va ommaviy axborot vositalarining davlat hokimiyati, boshqaruvi organlari faoliyatiga doir, shuningdek mansabdor shaxslarning intervyusini tashkil etish masalalarini huquqiy jihatdan tartibga solishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro, 6 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda sinovdan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, ilmiy jurnallarda 6 ta (2 ta xorijiy nashrlarda) va to‘plamlar tarkibida 8 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, sakkiz paragrafni o‘z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 155 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Axborot olish va tarqatishning konstitutsiyaviy-huquqiy tabiati”** deb nomlanib, unda axborotni tushunish bo'yicha nazariy-huquqiy qarashlar va zamonaviy tendensiyalar, axborot olish va tarqatish huquqining konstitutsiyaviy kafolatlarining rivojlanish bosqichlari, axborot texnologiyalari rivojlanishining axborot olish huquqiga nisbatan ta'siri va axborot olish va tarqatish huquqining inson huquqlari va erkinliklari tizimidagi o'rni ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Birinchi bobda “axborot” tushunchasiga batafsil to'xtalib o'tilgan va muallif uni kengroq tushunish uchun olimlarning axborotga bo'lgan qarashlarini batafsil tahlil qilgan. Xususan, bir qator olimlarning axborotga bo'lgan qarashlarini turlicha bo'lganligi sababli ularga batafsil to'xtalib tahlil qilingan. Bir qator olimlar N.B.Baranova, A.A.Ishina, A.V.Krotov, T.A.Timerbayev, S.V.Malaxov A.Yu.Proxorov, Yu.M.Lotman, T.J.Baljirova, A.N.Sheremet, T.Sh.Izzatovlarning “axborot” haqidagi qarashlari tahlildan o'tkazilgan va ularning orasida N.B.Baranova va A.A.Ishinalarning axborot haqidagi fikrlarini ancha teran hamda hayotiy degan to'xtamga kelingan. Zero, ushbu olimlarning tahlillari asosida muallif *“Axborot odamlar muloqotining muhim tarkibiy qismi, uning ishonchliligi odamlar o'rtasidagi teng, samarali munosabatlarining asosi bo'lib xizmat qilishi, axborot insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida odamlar tomonidan bir-biriga uzatiladigan ma'lumotlar shaxs va butun jamiyat rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarga erishish vositasidir. Shuningdek, axborotni foydalanuvchi tomonidan uning maqsadlari, o'z oldiga qo'ygan va hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalari, foydalaniladigan axborot sohasidagi bilim darajasi asosida talqin qilingan moddiy va moddiy bo'lmagan dunyoning har qanday hodisasi haqidagi xabarlar, ma'lumotlar yoki bilimlarning mazmunidir”*, degan xulosaga kelgan.

Izlanish chog'ida olimlarning fikrlarini tahlil qilgan holda muallif *“axborot olish huquqi tabiiy huquq deb hisoblanishi lozim va bu hodisa XXI asrda uzviy huquqqa aylanishga ulgurdi”*, degan xulosaga keldi.

Ilmiy ishda muallif bugungi kunda Internetdan axborot olish huquqining rivojlanish tendensiyalariga to'xtalib o'tib, uning rivojlanishini antik davrdan boshlab butun dunyoda va mamlakatimiz tarixida bo'lib o'tgan bosqichlarini batafsil tahlil qilgan. Ushbu tahlil jarayonida bir qator xorijiy olimlarning fikrlari tahlil qilingan. Xususan, V.V.Maklakov, Aleksis de Tokvil, V.I.Shalak, A.A.Tedeyev kabi olimlarning bugungi kun axborot makonining ko'rinishi haqidagi ilmiy qarashlariga to'xtalib o'tilgan.

Muallif XXI asrni axborot, axborotning inqilobiy asri deb, bunga asos sifatida misli ko'rilmagan axborot uzatish hajmining, axborot tezligining va yangi texnologiyalarni ishlab chiqishning rivojlanishida deydi. Axborot almashinuvi evolyutsiyasiga to'xtalib, jumladan: telegraf ixtirosi va aylanma matbaa (1847), telefon (1870), radio (1895), simsiz telegraf (1922), televideniya (1930) va 1946-yilda Sent-Luisda (AQSh) radiotelefon tizimi yaratilganiga to'xtaladi. Tadqiqot ishining asosini virtual dunyoda bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar tashkil etganligini ta'kidlagan holda Internetning (1986) yarialishi insoniyat tarixidagi olamshumul voqealardan biri bo'lganligiga to'xtaladi.

Tadqiqotchi Internet axborot-kommunikatsiya tarmog'i sifatida bugungi kunda kundalik turmush tarzimiz, jamiyatimiz va hayotimizda muqim o'rin tutgan hodisa sifatida shakllanganligini alohida ta'kidlaydi. Iqtisodiy quvvatlarning axborot-texnik jihozlanishini takomillashtirish, davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish va axborot jarayonlarining jamiyat hayotining eng xilma-xil sohalariga joriy etilishi tobora ilg'or axborot fuqarolarning kundalik hayotidagi texnologiyalarining jadal integratsiyalashuviga olib kelgan degan fikrga kelindi. Chunki, AQSh hukumatining olib borgan tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, Internet jadal sur'atlar bilan rivojlanib bordi. Xususan, 50 millionlik auditoriyaga ega bo'lish uchun radioga 30 yil, televideniya 13 yil, Internetga esa atigi 4 yil kerak bo'lganligi alohida ta'kidlandi.

Fuqarolarning axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini tadqiq qilish doirasida Internetning mazmuni va tabiatini har tomonlama o'rganish tadqiqotchiga global tarmoqning bir nechta vazifasini aniqlash imkonini beradi. Ushbu vazifalar:

- fuqarolarning axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqining mazmuniga kiritilgan vakolatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini ta'minlovchi virtual makon;

- fuqarolarning axborot olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan turli jamoatchilik munosabatlari uchun maxsus platforma;

- fuqarolarning axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqi mazmuniga kiruvchi turli vakolatlarni amalga oshirish vositasi (axborotdan foydalanish, axborotdan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish, tarqatish, ma'lumotlarni nusxalash hamda uzatish, oldindan belgilangan mezonlarga javob beradigan ma'lumotlarni o'z manzillariga yuborish va boshqalar);

- fuqarolarning axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqi va shaxsiy ma'lumotlariga bo'lgan huquqi buzilishining xavfi bo'lgan platforma;

- davlat hokimiyati organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, tashkilot va muassasalar faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasi;

- bizga ma'lumki jamoatchilik nazorati demokratiyaning asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi, demak Internetning rivojlanishi demokratik-huquqiy davlatning, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga juda katta turtki bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu vazifalar Internetning roli va ahamiyatini, uning davlat, jamiyat, qolaversa insonlar hayotida tutgan o'rnini oz bo'lsa-da ochib beradi, degan fikrga kelindi.

Dissertant bir qator xorijiy davlatlar (Gruziya, Ozarbayjon, Meksika, Germaniya va Turkiya) konstitutsiyalarida so'z va axborot erkinligi masalalari, shuningdek Internetdan foydalanish huquqi o'rin olganligini hamda fuqarolarning ushbu huquqlardan foydalanishlari davlatlarning konstitutsiyalari darajasida ta'minlanganligiga e'tibor qaratib, milliy konstitutsiyamizda ushbu huquqlardan

foydalanish huquqining fundamental inson huquqi sifatidagi o'rniga huquqiy baho bergan.

Tadqiqot davomida Internet olamida o'z o'rniga ega bo'lgan *EuroDIG, IGF, IFLA, Blue Ribbon Campaign for Online Free Speech, American Civil Liberties Union, Electronic Frontiers Australia, Electronic Frontiers Canada, Electronic Frontier Foundation, Internet Society, Global Internet Liberty Campaign* kabi tashkilotlarning faoliyati o'rganilib tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida Internetni xalqaro tartibga solishning ijobiy tomonlari tahlil qilindi va ular quyidagilar:

- *muayyan davlatlarning qonunchiligi yoki mafkurasi bilan belgilanmagan Internet boshqaruvi muammolari, shu jumladan Internet makonida so'z erkinligi va axborotdan foydalanish huquqini ta'minlash masalalari bo'yicha ochiq va erkin muloqot qilish imkoniyati;*

- *“ishtirokchi yondashuv”, ya'ni qarorlar qabul qilishda ko'plab ishtirokchilarni: hokimiyat organlari, xalqaro, hukumatlararo va nodavlat tashkilotlar, ilmiy va ekspert hamjamiyatlari, amalda Internet boshqaruvi muammolariga duch kelayotgan fuqarolik jamiyatining boshqa vakillarini jalb qilish;*

- *Internetni boshqarish muammolarini xolis, to'liqroq va dalillarga asoslangan holda tahlil qilish;*

- *xalqaro darajada qabul qilingan qoidalar davlatning Internetga bo'lgan huquqiy tabiatini ochib beradi;*

- *qarorlar qabul qilishda BMT va mintaqaviy xalqaro tashkilotlar darajasida qabul qilingan inson huquqlari bo'yicha fundamental hujjatlarni hisobga olish.*

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, butunjahon Internet tarmog'ini xalqaro tartibga solishning zaif tomonlari quyidagilardan iborat:

- *aksariyat hollarda xalqaro tashkilotlarning qarorlari maslahat xarakteriga ega bo'lib, bu barcha yurisdiksiyalar tomonidan milliy darajada qabul qilinishiga umid qilishga imkon bermaydi. Ammo davlatlararo imzolangan va ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar bundan mustasnodir;*

- *barcha milliy yurisdiksiyalar, ya'ni davlatlar Internetni tartibga solishning ayrim xalqaro normalari va tamoyillarini bir ma'noda qabul qilmaydi;*

- *yuqorida sanab o'tilgan xalqaro tashkilotlar tomonidan taklif etilayotgan Internet tarmog'ini tartibga solishning aksariyat norma va tamoyillari axloqiy xarakterga ega bo'lganligi sababli, ularni idrok etish mamlakatdan nihoyatda yuksak huquqiy (axborot) madaniyatini talab qiladi;*

- *ko'plab xalqaro - nohukumat va hukumatlararo tashkilotlar (“Chegara bilmas muxbirlar”, IFLA va boshqalar) nuqtayi nazaridan Internetni tartibga solishga bo'lgan har qanday urinish Internetda senzuraning noqonuniy o'rnatilishi sifatida qabul qilinadi. Natijada, ushbu holat avtomatik ravishda so'z erkinligi va axborotdan foydalanish huquqining buzilishi sifatida baholanadi.*

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Internetda axborotga bo'lgan huquqni amalga oshirishning konstitutsiyaviy-huquqiy masalalari”** deb nomlangan. Unda Internet makonidagi huquqiy munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy tahlili, axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqning ta'minlanishida Internetning ahamiyati,

Internetdan axborot olishni huquqiy jihatdan tartibga solish va amalga oshirish muammolariga doir masalalar tadqiq etilgan.

Huquqshunoslar orasida Internetning huquqiy mohiyati va u bilan bog'liq yagona nuqtayi nazar mavjud emas. Bu boradagi qarashlar hamda global tarmoq haqidagi ta'riflar ham turlicha. Ilmiy ish doirasida tadqiqotchi ushbu masalada olimlarning bu boradagi qarashlari bilan tanishib o'rgangan. Dissertant virtual makonning asosiy bo'g'ini sanalgan Internet olamini tadqiq qilgan holda bir qancha olimlarning ushbu makon haqidagi qarashlari va izlanishlari natijasida kelgan xulosalarini o'rganib tahlil qilgan. Xususan, V.A.Kopilov, I.M.Rassolov, A.A.Lukyanova, S.V.Petrovskiy, V.A.Ostreykovskiy, S.V.Malaxov, V.I.Shalak, S.V.Mixaylov, A.N.Sheremet, Y.Kurbaliyya, A.A.Tedeev, Yu.Melnikov va A.Terenin, Ye.V.Altovskiy kabi olimlarning izlanishlari va qarashlari chuqur tahlildan o'tkazildi.

Izlanish davomida Internet haqidagi olimlarning fikrlari turlicha bo'lgani bilan ularning xulosalari o'xshash, degan to'xtamga kelindi. Ularning tadqiqotlari Internetda axborot olish va uni tarqatishda yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Global tarmoqdagi huquqiy munosabatlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, ularni *Internetga oid huquqiy munosabatlar va Internet vositachiligidagi huquqiy munosabatlarga* ajratgan holda tushunish kerak.

Huquqiy nuqtayi nazardan olganda, tadqiqotchi Internet sohasidagi huquqiy munosabatlarni **ikkita** katta yo'nalishga ajratgan holda tahlil qilgan. O'z navbatida ushbu yo'nalish boshqa xususiyatlar bilan bir qatorda muhokama qilinayotgan sohadagi huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlarini ham tavsiflaydi:

1) *Internetga oid huquqiy munosabatlar, u bilan bog'liq yoki uning faoliyati, shuningdek faoliyatining boshqa resurslari, Internetga kirish, Internet resurslarini yaratish, modernizatsiya qilish, qayta tashkil etish, tugatish, Internet tarmog'ida (to'liq yoki qisman) yoki Internet orqali turli xil xizmatlar va boshqa imtiyozlarni reklama qilish, taqdim etish hamda iste'mol qilish;*

2) *ma'lumotlarga nisbatan Internet vositachiligidagi huquqiy munosabatlar, ya'ni Internet faqat ushbu munosabatlarga vositachilik qiluvchi muhit sifatida ishlaydigan huquqiy munosabatlar.*

Tadqiqot ishida axborot olish huquqi, undan erkin foydalanish, Internetdagi huquqiy munosabatlar kabi muammolar tahlil qilindi. Internetdagi huquqiy munosabatlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu yo'nalishni huquqiy tartibga solish dolzarb masaladir. Bu yerda asosiy masala Internetni huquqiy tartibga solishni amalga oshiruvchi tashkilotni belgilab olish muhimdir. Tadqiqotchi, ushbu sohani davlat tomonidan tartibga solinishi to'g'ri bo'ladi, degan xulosaga kelgan. Uning fikricha, davlat Internetni huquqiy jihatdan tartibga solishni amalga oshirishga haqli organ hisoblanadi. Davlat ushbu jarayonda nafaqat sohani tartibga solishga haqli, balki amalga oshirishga majbur deb ham hisoblaydi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dunyo miqyosida, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda Internetni davlat tomonidan boshqarilishi uning samaradorligini yanada oshiradi. Ushbu sohada davlat boshqaruvining (shu jumladan huquqiy tartibga solishning) axborot va telekommunikatsiya munosabatlarida, shu jumladan Internetni boshqarishda eng samarali usuli bu kombinatsiyalangan (qo'shma)

imperativ-dispozitiv usul bo'lib, uning tarkibidagi o'lchov xususiyatlariga ko'ra, aynan dispozitiv usulning davlat tomonidan fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda amalga oshirilgan shakllari ustunlik qiladi, degan xulosaga kelishga imkon berdi.

Ushbu jarayon davlat va nodavlat subyektlarining vakolatlari doirasi demokratik davlatlar uchun sezilarli darajada mos keladi. Lekin avtoritar siyosat yuritadigan va Internetni maksimal darajada nazorat ostiga olishga intilayotgan davlatlarga ushbu vakolatlar u qadar mos kelmaydi.

Internet bilan bog'liq bo'lgan huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish tadqiqotchiga huquqiy tartibga solish va qonunni qo'llashning umumiy (eng keng tarqalgan) xususiyatlarida (keng ma'noda) asosiy semantik dominant va dolzarbligi jihatidan eng muhim degan xulosaga kelishiga imkon berdi. Huquqni muhofaza qilish organlariga ta'sir ko'rsatadigan muhit, jamoat munosabatlari vositasi sifatida Internetning o'ziga xos xususiyatlari sifatida dalillarni aniqlashning qiyinligi, jinoyat hodisasini aniqlash, aybdorlarni aniqlash va boshqalarni ko'rib chiqish mumkin. Internetning uning huquqiy tartibga solinishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan xususiyatlari yuqorida ko'rsatilgan ikkita yo'nalishning birinchisiga ko'proq bog'liq, ya'ni Internetga oid huquqiy munosabatlar va uning faoliyatining ayrim jihatlari yoki resurslarining ishlashi bilan bog'liq. Bunda Internet tarmog'iga kirish, Internet resurslarini yaratish, modernizatsiya qilish, qayta tashkil etish, tugatish, begonalashtirish, Internet tarmog'ida yoki (to'liq yoki qisman) Internet tarmog'i yordamida reklama qilish, turli xizmatlarni ko'rsatish, iste'mol qilish va boshqa imtiyozlar kabi masalalar kiradi.

Axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquq tahlilida Internetning mazmuni va tabiatini ko'p qirrali tahlil qilish tadqiqotchiga konstitutsiyaviy huquqiy nuqtayi nazardan Internet bugungi kunda quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi degan xulosani ilgari surishga imkon beradi:

- *axborot tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqning elementlariga mos keladigan global nomoddiy umuminsoniy ne'mat;*

- *axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqni amalga oshirish bilan bog'liq va axborot vositasida amalga oshiriladigan shaxsiy, jamoaviy, davlatlararo, xalqaro, tizim ichidagi, institutlararo, shu jumladan jamiyatlararo hamda shaxslararo munosabatlarning muhiti;*

- *tadbirkorlik va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xo'jalik faoliyatini amalga oshirish bo'yicha kafolatlangan huquqlarni amalga oshirishning o'ziga xos muhiti (elektron tijorat, elektron pul, Internet to'lov tizimlari va boshqalar);*

- *axborotga kirish huquqi, ma'lumotga ega bo'lish huquqi, ma'lumotlardan foydalanish huquqi, tarqatish huquqlari (jumladan, nusxa olish va uni uzatish) kabi huquqlarni amalga oshira oladigan hamda axborotga bo'lgan huquqni amalga oshirishning kafolati va vositasi sifatida axborot, ma'lum bir axborot oluvchilarga ma'lumot yuborish huquqlari to'plami, shaxslararo aloqalar doirasida axborotdan foydalanish, shuningdek Internet bilan aloqada bo'lgan ma'lumotlarga bo'lgan kompleks huquqning boshqa tarkibiy qismlaridan iborat axborot makoni;*

- *bir qator elementlar bo'yicha axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqning buzilish xavfi va yangi tahdidlarning o'ziga xos muhiti;*

- davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, tashkilotlar, muassasalar va boshqalarning faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish vositasi (axborot olish huquqini amalga oshirish orqali).

Shu bilan bir qatorda shuni alohida ta'kidlash kerakki, Internetning paydo bo'lishi, uning jadallik bilan rivoj topishi, universalligining oshishi va odamlar hayotiga keng miqyosda kirib borishi axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquq tarkibini to'ldiradigan yangi axborot huquqlarining paydo bo'lishiga olib keldi.

Ushbu yangi huquqlar orasida, birinchi navbatda, Internetga kirish huquqini ajratib ko'rsatish kerak. Zero, mazkur huquq jamiyat taraqqiyotiga va muayyan bir davlat fuqarolarning so'z erkinligiga bo'lgan ehtiyojining qondirilishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham ushbu huquqning normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlanishi uning hayotda hech qanday to'siqlarsiz amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqqa tahdidlarning kelib chiqishi hamda ushbu tahdidlarni amalga oshirilishida kelib chiqadigan salbiy huquqiy oqibatlar mavjud. Ushbu tahdidlar Internetning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, butun bir kompleks tarzda buzilgan huquqlarning yirik ko'rinishi shaklida axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqning elementlari sifatida o'zini namoyon qiladi. Bular quyidagilar:

1) axborotdan foydalanish huquqlarining buzilishi:

- Internet xizmatlarini ko'rsatishni qonunga xilof ravishda rad etish tufayli ma'lumotlarga kirish huquqlarining buzilishi;

- login va parollarning o'g'irlanishi sababli ma'lumotlarga kirish huquqlarining buzilishi;

- pullik ma'lumotlar bazalariga kirishni ta'minlovchi login va parollar o'g'irlanishi sababli ma'lumotlarga kirish huquqlarining buzilishi;

- kompyuter tizimi va uning dasturiy ta'minoti ishlamay qolganligi sababli ma'lumotlarga kirish huquqlarining buzilishi - parolni taxmin qilish, xavfsizlik va ma'muriy tizimlarni buzish, boshqa usullardan foydalanish, shu jumladan zararli kompyuter dasturlaridan foydalanish;

- qidiruv yo'nalishini manipulyatsiya qilish orqali ma'lumotlarga kirish huquqlarining buzilishi, ya'ni Internet tizimini manipulyatsiya qilish, domen manzillari tizimiga kirish va Internet kontentini filtrlash tizimlari;

2) shaxsning iqtisodiy va boshqa qonuniy manfaatlariga qonunga xilof ravishda tajovuz qilish maqsadida identifikatsiya qilish va avtorizatsiya qilish huquqini buzish:

- login va parolni buzish yoki ushlab qolish orqali (elektron pul tizimlari, elektron to'lovlar, bank xizmatlari va boshqalar) ushbu shaxsning to'lov tizimlaridagi hisob raqamlariga ruxsatsiz kirish orqali shaxsning ko'rsatilgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzish. Bunda turli xil usullar, jumladan viruslar, kompyuterning zararli dasturlarini qo'llash va shu orqali akkaunt egalariga tegishli bo'lgan mablag'larni o'g'irlash, ushbu shaxsni obro'sizlantirish, shantaj qilish yoki boshqa noqonuniy harakatlarni amalga oshirish uchun noqonuniy foydalanish;

- shaxsning korporativ moliyaviy-tahliliy, logistika va boshqa kirish cheklangan axborot tizimlaridagi akkauntlariga ruxsatsiz kirish orqali login va parolni buzish yoki

ushlab qolish, shaxsning belgilangan huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzish hamda boshqa noqonuniy usullar;

- shaxsning belgilangan huquqlari va qonuniy manfaatlarini elektron imzoni qalbakilastirish orqali buzish (aksariyat mamlakatlarda ushbu usul orqali firibgarlar fuqarolarning bankdagi hisob raqamlaridan pul mablag'larini yechib oladilar, ularning nomlariga kredit rasmiylashtiradilar va boshqa turli xil jinoyatlar sodir etadilar);

- shaxsning belgilangan huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzish Internetdagi firibgarlik faoliyati, shu jumladan bank yoki muayyan bir tashkilot nomidan qo'ng'iroq qilib fuqarolarga tegishli bo'lgan muhim ma'lumotlarni so'rash va ushbu usuldan foydalangan holda ularning huquqlarini buzish (ushbu usuldan bugungi kunda mamlakatimizda ko'plab firibgarlar foydalanmoqdalar va aholining aksariyat qismi mazkur holatning qurboniga aylanmoqda);

3) shaxslararo aloqalar doirasida ma'lumotlardan foydalanish va axborot aylanmasi huquqlarini buzish, shaxslararo yozishmalar jarayonida axborot uzatish jarayoni va kanallarini himoya qilish huquqlarining buzilishi:

- shaxsiy elektron pochta qutisi tarkibiga yoki tezkor xabar almashish xizmati tizimining interfeysiga ruxsatsiz kirish va ularni boshqarish orqali ushbu huquqlarni buzish, shu jumladan quyidagi maqsadlarda: elektron pochta manzilini, tezkor xabarlar xizmati tizimidagi manzilni (login) o'g'irlash, elektron pochta orqali yoki tezkor xabar almashish xizmati orqali yuborilgan bir marta yoki tizimli ravishda ko'rish;

- qonun bilan qo'riqlanadigan kompyuter ma'lumotlariga, ya'ni elektron ma'lumot tashuvchi qurilmaga yoki ularning tarmog'idagi ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish orqali ushbu huquqlarni buzish (shu jumladan, agar ushbu harakat yo'q qilish, bloklash, o'zgartirish yoki o'zgartirishga olib kelgan bo'lsa). Ushbu harakatlar ma'lumotlarni nusxalash, kompyuterlar, elektron tizimlar yoki ularning tarmoqlari ishini buzish orqali ya'ni, parolni taxmin qilib buzish, himoya va boshqaruv tizimlarini buzish, boshqa usullardan, shu jumladan zararli kompyuter dasturlaridan foydalanish;

4) fuqarolarning shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarning daxlsizligi va himoyasi, ularning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar, shaxs to'g'risidagi faqat ungagina tegishli bo'lgan ma'lumotlar hamda boshqa shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, shuningdek uning tasvirini himoya qilish huquqini buzish:

- qonun bilan himoyalangan elektron qurilmadagi ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish orqali;

- Internet tarmog'ida fuqaroning shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni, uning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni, shuningdek shaxs to'g'risidagi boshqa sirlarni noqonuniy ravishda tarqatish orqali;

5) ma'lumotlardan foydalanish huquqlarining, shu jumladan tadbirkorlik va qonun bilan taqiqlanmagan boshqa iqtisodiy faoliyat uchun o'z qobiliyatlari va mulkidan erkin foydalanish huquqi, o'z asarlarini nashr etish va o'z ishidan ma'lum bir foyda olish huquqining buzilishi;

6) axborotni tarqatish (shu jumladan uzatish) huquqlarining buzilishi:

- Internet ommaviy axborot vositalarining Internet saytlariga kiberhujumlar (bosma ommaviy axborot vositalarining yoki telekanallarning onlayn versiyalari), shu

jumladan, ushbu Internet saytlarni yo‘q qilish yoki faoliyatining boshqacha tarzda buzilishi yoki materiallarni ruxsatsiz joylashtirish tufayli ommaviy axborot vositalari erkinligiga (masalan, provokatsion maqsadlarda) tajovuz qilish;

- Internet tizimini manipulyatsiya qilish, domen manzillari tizimi va Internet kontentini filtrlash tizimlariga kirish tufayli ommaviy axborot vositalari erkinligiga tajovuz;

- reklama joylashtirilishi kerak bo‘lgan Internet saytlarga kiberhujumlar tufayli uni tarqatish huquqining buzilishi;

7) axborotdan himoyalaniş huquqlarining buzilishi:

- voyaga yetmagan bolalarning jismoniy, ruhiy, ma‘naviy va axloqiy salomatligi hamda rivojlanishiga tahdid soluvchi ma‘lumotlarga, shuningdek, ularning ishonchi va tajribasining yetishmasligidan foydalanish, noqonuniy materiallarni Internet saytlariga joylashtirish va tajovuzkor reklama yoki majburlash orqali (spam va boshqalar orqali) himoya qilish huquqlarini buzish;

- Internet tarmog‘ida fuqarolarning diniy kelib chiqishi, millati yoki irqi bo‘yicha insoniy qadr-qimmatini kamsituvchi, millati yoki irqini tahqirlovchi, ekstremistik xarakterdagi boshqa ma‘lumotlarni joylashtirish orqali axborotdan himoyalaniş huquqlarini buzish; shaxs sha‘nini kamsituvchi va uning shaxs sifatidagi qadr-qimmatini kamsituvchi ma‘lumotlar; tuhmat yoki haqoratni o‘z ichiga olgan ma‘lumotlar; tashkilotning ishbilarmonlik obro‘sigga putur yetkazadigan ma‘lumotlar;

- Internet foydalanuvchilarning ongiga ta‘sir ko‘rsatadigan ma‘lumotlarni Internet tarmog‘ida joylashtirish yoki ularga nisbatan boshqa ruhiy yoki psixologik zo‘ravonlik qilish orqali axborotdan himoyalaniş huquqlarini buzish;

8) axborotni olish va (yoki) uni iste‘mol qilishni rad etish (axborot bilan tanishish) huquqlarining buzilishi:

- axborotni, shu jumladan pochta jo‘natmalari va elektron xabarlarini (spam) oluvchilarni aniqlash vositalaridan foydalangan holda axborotni tarqatishda axborotni olishni rad etish huquqini buzish;

- reklama xarakteridagi ma‘lumotlarni olish yoki undan foydalanishdan bosh tortish huquqini buzish.

Yuqorida axborotga bo‘lgan huquqni tartibga solish va bu borada konstitutsiyaviy huquqni amalga oshirish nuqtayi nazaridan ahamiyatga ega bo‘lgan masalalar tahlil qilindi. Ko‘rinib turibdiki, Internetning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, axborotga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqqa muayyan bir tahdidlar mavjud. Tadqiqotchi Internet sohasidagi qonunchilikni, quyidagi yo‘nalishlarda takomillashtirish zarurati mavjud, degan fikrda. Bular:

- kibermakonning umumiy huquqiy rejimini, shu jumladan Internet tuzilmasini va milliy domen zonasini boshqarishni takomillashtirish;

- shaxsiy ma‘lumotlar, fuqarolarning shaxsiy hayoti haqidagi ma‘lumotlar, shu jumladan Internetdagi maxfiy aloqalar xavfsizligini ta‘minlashni takomillashtirish;

- Internet tarmog‘ida moliya-xo‘jalik faoliyatini himoya qilish va Internet tarmog‘idan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish, shu jumladan elektron tijorat, elektron to‘lov tizimlari mexanizmlari va vositalarini takomillashtirish, xavfsizlik va muhofaza tizimini takomillashtirish, elektron imzo mexanizmining ishlashini osonlashtirish;

- saylov tizimini shakllantirish jarayonida Internet tizimining huquqiy tartibga solinishini takomillashtirish;

- odil sudlov, sudlar, shuningdek, boshqa davlat hokimiyati organlari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanish jarayonida Internet tizimini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish;

- Internet tarmog'ida va Internet tarmog'i bilan bog'liq huquqbuzarliklar, axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqqa noqonuniy tajovuzlar uchun jinoiy va ma'muriy javobgarlik choralari tartibini takomillashtirish.

Ushbu tadqiqot mavzusi va maqsadlarini hisobga olgan holda, ko'rsatilgan huquqlar va qonuniy manfaatlarni himoya qilish bo'yicha qonunchilik sohasidagi mavjud muammolarning yechimlarini topishning o'ziga xos murakkabliklari bo'lib, ularni ko'rsatib o'tish masalaning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotchi Internetdan axborot olishni huquqiy jihatdan tartibga solish va amalga oshirish borasidagi muammolarni atroflicha o'rganib tahlil qilgan. Bugungi kunda global tarmoqda axborot almashinuvi doirasida bir qancha muammolar mavjud bo'lib, hozirgi vaqtda Internet tarmog'idagi asosiy muammolar quyidagilardir:

- 1) *Ekstremistik faoliyat bilan bog'liq materiallarni global axborot tarmog'ida tarqatish;*
- 2) *Internetda intellektual mulk huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq muammolar;*
- 3) *Tarmoq manziliga (domen nomi) mutlaq huquqlarni huquqiy jihatdan tartibga solish*
- 4) *Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish;*
- 5) *Internet tarmog'ida elektron tijoratni huquqiy tartibga solish;*
- 6) *Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni tashviqot qilish, noqonuniy reklama qilish;*
- 7) *Internetda pornografik materiallarni noqonuniy tarqatish;*
- 8) *Internetda tuhmat;*
- 9) *Internetda firibgarlik.*

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**O'zbekistonda so'z va Internetdan axborot olish huquqini ta'minlashga doir qonun hujjatlarini takomillashtirishning huquqiy yo'nalishlari**" deb nomlanib, ushbu bobda ochiqlik siyosatining so'z erkinligini hamda Internetdan erkin foydalanishni ta'minlashdagi o'rni va roli, shuningdek Internetdan erkin foydalanishni tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari kabi masalalarning tahliliga bag'ishlangan. Dissertant ushbu bobda bir qancha olimlarning qarashlari va izlanishlari natijasida kelgan xulosalarini o'rganib tahlil qilgan. Xususan, I.Rustambekov, J.Abdullayev, A.A.Lukyanova, Ya.N.Zasurskiy, A.Skvorsov, kabi olimlarning izlanishlari va qarashlari chuqur tahlil qilingan.

Ushbu bobda dissertant mamlakatimizda olib borilayotgan ochiqlik siyosati natijasida aholiga berilayotgan keng imkoniyatlar va qabul qilingan huquqiy hujjatlarga to'xtalib o'tgan. Xususan, Prezident tashabbusi bilan olib borilayotgan siyosatning natijasida bugungi kunda dunyo reytinglarida mamlakatimiz so'z erkinligi va axborot erkinligi borasida tobora yuqorilab borayotgani, lekin amalda keng imkoniyatlar berilganiga qaramay hali ham jiddiy kamchiliklar uchrayotganiga

to'xtalib, ushbu kamchiliklarni tahlil qilgan. Izlanish davomida bugungi kunda jamoatchilik orasida keng tarqalgan va ommalashgan ijtimoiy tarmoqlar faoliyatiga to'xtalib, ularning ahamiyati va o'rni keng tahlil qilingan. Shu o'rinda mana shu ijtimoiy tarmoqlarning bloklanishiga to'xtalib o'tilgan. Ushbu tarmoqlarning bloklanishi natijalarini 2 ga ajratib ularning salbiy oqibatlarini (*iqtisodiy ta'sir, ijtimoiy ta'sir*) tahlil qilgan.

Dissertant tomonidan tadqiqot doirasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomada ishtirok etgan 600 ga yaqin respondentlarning 91,4% Internetdan har kuni 38,1% esa ijtimoiy tarmoqlardan muntazam foydalanishlarini ta'kidlaganlar. Shuningdek, so'rovnomada ishtirok etgan qatnashchilardan mamlakatimizda Internet tarmog'idagi axborotdan foydalanishni tartibga soluvchi amaldagi qonun va me'yoriy hujjatlarni baholash so'ralganda ishtirokchilarning 55,4% mavjud qonunchilikni qoniqarli deb baholagan bo'lsalar 19,4% amaldagi milliy qonunchiligimizni qoniqarsiz deb hisoblashlarini ta'kidlab o'tganlar. Bundan tashqari so'rovnoma ishtirokchilarning 32% axborotdan foydalanishni tartibga soluvchi qat'iy qonunlar zarur degan javobni berganlar.

Bugunga kelib milliy qonunchilikda qonunlar bilan bir qatorda boshqa ko'plab qonunosti hujjatlari ham qabul qilingan. Lekin ushbu normativ-hujjatlar orasida Internetni kompleks tarzda to'raligicha qamrab olgan holda tartibga soladigan alohida qonun O'zbekistonda mavjud emas.

Umuman olganda xalqaro miqyosda olib qarasak, aksariyat davlatlarda Internet tarmog'i va Internet munosabatlarini huquqiy tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmagan, ammo qonunosti va lokal hujjatlar hamda huquqni qo'llash amaliyoti shakllangan. Ushbu huquqni qo'llash amaliyotlarining asosiy yo'nalishlari shaxsiy ma'lumotlarni saqlash, Internet foydalanuvchilarini identifikatsiyalash tizimlarini joriy etish ishlari amalga oshirilib kelinayotganligida ko'rinadi.

Yuqoridagi misollardan ko'rish mumkinki, bugungi kunda dunyo mamlakatlarida Internet tarmog'i va unda vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan harakatlar mavjud, ushbu harakatlar davom etmoqda, lekin mavjud amaliyot hozircha Internetni kompleks tartibga solishni qamrab olmayotganligini, balki mavjud harakatlar asosan Internetdan foydalanish huquqini muayyan tarzda cheklashni asoslantirish yo'lida davom etayotganligini ko'rish mumkin.

Dissertantning fikricha, Internetni cheklash harakatlariga tanqidiy munosabat bildirilishi kerak. Chunki mazkur holat salbiy oqibatlarga olib keladi. Buni Internetga kirish cheklangan bir qancha davlatlar misolida tadqiqot ishida ko'rib tahlil qilingan. Sababi esa avval munosabatlar to'liq huquqiy tartibga solinishi, ana undan so'ng ushbu munosabatlarni tartibga solish qoidalarini buzgan shaxslarga nisbatan chora ko'rilishi to'g'ri va asosli bo'lib hisoblanadi.

Milliy qonunchilik uchun tadqiq etilayotgan masala nisbatan yangi soha bo'lgani uchun uni G'arb davlatlari qonunchiliklari bilan bevosita solishtirish u qadar to'g'ri bo'lmaydi. Shuning uchun ham ushbu soha qardosh davlatlarda qanday aks etgani e'tiborga loyiq. O'zbekiston qonunchiligi ko'proq qo'shni davlatlar qonunchiliklaridan andoza oladi. Sababi yaqin mentalitet, bir necha yil bir tuzum ostida yashaganlik va boshqalar bunga asos bo'lib xizmat qiladi.

MDH davlatlarida Internetni tartibga solishning bir necha yondashuvlari ishlab chiqilgan. Ushbu masalaga Armaniston, Qirg'iziston va Moldova kabi davlatlar nisbatan liberal munosabatda yondashadilar. Armanistonda axborot resurslariga kirishni cheklashni tartibga soluvchi maxsus huquqiy normalar mavjud emas. Kirishni cheklash sud qarori asosida amalga oshirilishi mumkin. Buning asosi kontentning noqonuniyligi to'g'risidagi sud qarori bo'lishi mumkin. Qirg'izistonda Internet saytlari ommaviy axborot vositalari emas. Ekstremistik axborot materiallarini bloklashga nisbatan davlat tomonidan tartibga solish amalga oshiriladi. Qirg'iziston MDH davlatlarining "Internet tarmog'ini tartibga solish asoslari to'g'risida"gi namunaviy qonuniga qo'shilgan. Shuningdek, 2021 yil 23 avgustda Prezident S. Japarov "Ishonchsiz (yolg'on) axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunni imzoladi. Unda Internet foydalanuvchilarini deanonimlashtirish, shuningdek, agar u yerda yolg'on ma'lumotlar e'lon qilingan bo'lsa, sud qarorisiz saytlarni bloklash ko'zda tutilgan. Xususan, qonunning 5-bandida aytilishicha, Internet-provayder, sayt yoki sahifa egasi yolg'on ma'lumotlarga kirishni cheklaydi yoki taqiqlaydi. Shuningdek, Internet-provayderlar umumiy foydalanish nuqtalari egalari "o'z obunachilarini aniqlashlari (ya'ni identifikatsiyalashlari) talab qilinadi. Moldovada qonunchiligiga to'xtalganda, shuni alohida ta'kidlash joizki, ushbu davlat qonunchiligi Yevropa qonunchiligiga anchayin muvofiqlashtirilgan. Moldovaning amaldagi "Matbuot to'g'risida"gi qonuni onlayn OAV, bloglar va an'anaviy media saytlar faoliyatini tartibga solmaydi. Yana bir e'tiborli jihati shundaki Moldovada boshqa MDH davlatlaridan farqli ravishda "Axborot to'g'risida" maxsus qonun yo'q.⁷

MDH mamlakatlarida Internetning davlat va jamiyat hayotidagi o'rni hamda ularning rivojlanish tendensiyalarini tadqiq qilish bizga quyidagilarni ko'rsatdi. MDH mamlakatlari qonun hujjatlarining tahlili ular Internet-siyosatni rivojlantirish jarayonining turli bosqichlarida turgani, ammo barcha mamlakatlar uchun umumiy jihatlar borligini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, vaziyatni quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. *MDH mamlakatlarida "Internet to'g'risida" keng ko'lamli qonun mavjud emas.*

2. *MDHning bir qator mamlakatlarida "Internet" so'zi qonun hujjatlarida hatto tilga olinmagan. Qoida tariqasida, Internetni tartibga solish masalalari konsepsiyalar, strategiyalar, hukumat qarorlari va turli nizomlarda ko'rib chiqiladi.*

3. *Qonun hujjatlarining yo'qligi turli oqibatlariga olib keladi:*

a) *ayrim mamlakatlarda bunday qonun hujjatlarining yo'qligi Internet hukumat aralashuvisiz rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi. Ammo bu holda hukumat istalgan vaqtda Internet ustidan o'z nazoratini o'rnatishga harakat qilishi mumkin;*

b) *boshqa mamlakatlarda Internetni tartibga soladigan qonun hujjatlarining yo'qligi hukumat harakatlari uchun erkinlik beradi, ya'ni nimani ruxsat etish va nimani taqiqlashni amaldorlar o'zboshimchalik bilan hal qiladilar.*

4. *Internet hukumat tomonidan me'yordan ortiq tartibga solinadigan mamlakatlar ham yo'q emas va ularda bo'lg'usi islohotning maqsadi tarmoqni*

⁷ Ushbu qonunlar haqidagi to'liq ma'lumotlar dissertatsiyada keltirib o'tilgan

mazkur cheklashlardan ozod qilishdan iborat.

5. *“Tartibga soluvchi” qonun ayrim mamlakatlarga Internetdan foydalanish sohasida yuzaga keluvchi huquqiy munosabatlarni tartibga solish imkonini beradi.*

6. *Barcha mamlakatlarda Internet “taqdiri” unga bevosita tegishli bo‘lmagan qoidalarga ko‘p jihatdan bog‘liq.*

7. *Internet-bozorni rivojlantirishning eng ta’sirchan vositasi uning o‘zini o‘zi tartibga solishidir. Tarmoqda munosabatlarni tartibga solishning mazkur usuli Internet hamjamiyatning barcha a’zolarini qanoatlantiradigan qoidalarni belgilash va davlat aralashuvini oqilona darajada cheklash imkonini beradi.*

Tadqiqot davomida hech qaysi bir davlatda Internetni kompleks tarzda qamrab oladigan qonun mavjud emasligini ko‘rishimiz mumkin. Ko‘plab mamlakatlarda Internetni tartibga solish masalalari konsepsiyalar, strategiyalar, hukumat qarorlari va turli nizomlarda keltirib o‘tiladi. Ushbu sohani tartibga soluvchi qonun hujjatlarining yo‘qligi esa turli salbiy oqibatlarini keltirib chiqaradi.

Milliy qonunchilik tahlili Internet tarmog‘ini kompleks tartibda qamrab oluvchi maxsus qonun yo‘qligini ko‘rsatdi. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, ana shunday qonun qabul qilinishi Internetni tartibga solish hamda foydalanish imkoniyatlarini, shuningdek axborot olish va tarqatish sohasining rivojiga katta hissa qo‘shadi.

Dissertantning fikricha, agar qonun loyihasi ishlab chiqilsa, ushbu loyihada quyidagi normalar o‘z ifodasini topishi kerak.

1) *Umumiy qoidalar, ya’ni qonunning amal qilish doirasi, foydalaniladigan asosiy atamalar aks etishi lozim. Bunda Internetni tartibga solish jarayonlarining subyektlari ko‘rsatilgan bo‘lishi, barcha tomonlar, xususan davlatlar, foydalanuvchilar, Internet xizmatlari operatorlari ishtirok etishi lozimligi aks etishi kerak.*

2) *Internet bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarni tartibga solish prinsiplari o‘z ifodasini topishi kerak. Bunda asosiy jarayonlar va Internetni tartibga solishga qo‘yiladigan talablar belgilangan bo‘lishi, davlatning Internetni rivojlantirish, undan ochiq va cheklovlarsiz foydalanishni ta’minlash bo‘yicha majburiyatlari belgilanishi lozim.*

3) *Internetni tartibga solish jarayonida barcha ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlari, shuningdek Internetni tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari belgilangan bo‘lishi kerak. Bundan tashqari Internetni tartibga solish sohasida xalqaro hamkorlik prinsiplari va yo‘nalishlarining belgilanishi esa Internet bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarga xos muammolarni hal etadi.*

4) *Nizolarni hal etish va mazkur qonun normalarini buzganlik uchun javobgarlik masalalari aks etishi lozim.*

O‘zbekistan Respublikasida shu kabi qonun normasining qabul qilinishi bir qator ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi. Xususan, Internetni boshqarish sohasida asosiy manfaatdor tomonlar, ya’ni davlat, biznes va fuqarolik jamiyatining sherikligi qonun yo‘li bilan mustahkamlanadi. Davlatning Internetni rivojlantirish va undan foydalanishni ta’minlash borasidagi majburiyatlari normativ-huquqiy hujjatda o‘z aksini topadi. Internetni tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari, shuningdek asosiy manfaatdor tomonlar, ya’ni davlat, biznes hamda fuqarolik jamiyatining vakolatlari

qonun bilan mustahkamlanib qo'yiladi. Eng asosiysi esa ushbu qonun normalarining har qanday shaklda buzilishi javobgarlik masalasini keltirib chiqarishi o'z aksini topadi.

Internet to'g'risidagi qonun o'zida turli huquq sohaslariga oid normalarni jamlashi kerak. Dissertantning fikricha, ushbu qonun quyidagilarni belgilaydigan qoidalarni o'z ichiga olishi lozim:

1) *Internet tarmog'iga oid jahon hamjamiyati tomonidan umume'tirof etilgan hujjatlarda aks etgan prinsiplarni;*

2) *Internet tarmog'iga oid davlat siyosati asoslarini va milliy qonun hujjatlarining tuzilmasini;*

3) *Internet tarmog'ida vujudga keladigan munosabatlarga qonun hujjatlarini qo'llash prinsiplarini;*

4) *Internet tarmog'ida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning ayrim fundamental prinsiplarini;*

5) *Internet tarmog'i bilan bog'liq muhokama etilishi hamda aniqlik kiritilishi lozim bo'lgan boshqa masalalarni.*

Internet to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi xuddi shu masalalarni o'zida mujassam etgan boshqa bir normativ hujjatlar ham qabul qilinishi zaruratini keltirib chiqaradi.

Mazkur hujjatlarning qabul qilinishi natijasida Internet tarmog'idagi vujudga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normativ hujjatlar tizimi paydo bo'ladi. Ushbu tizimning asosini maxsus (Internet to'g'risida) qonun tashkil qilsa, xuddi shu munosabatlarni tartibga solishda qo'shimcha ravishda normativ-huquqiy hujjatlar tashkil qiladi. Aynan shunday tizim Internetni kompleks tarzda qamrab oladi va axborot olishda vujudga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga soladi.

Tadqiqot davomida milliy qonunchiligimizning tahlili shuni ko'rsatdiki, Internetdan axborot olish va tarqatish borasida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi aniq bir normativ hujjat yo'q. Bu boradagi munosabatlar, ayniqsa Internet tarmog'ida yuzaga keluvchi munosabatlar doirasiga qo'llash mumkin bo'lgan normalar turli qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Ushbu munosabatlar o'z xususiyatiga ko'ra ko'pgina huquq sohalari bilan uzviy aloqaga kirishadi. Biroq, Internet tarmog'ida vujudga keladigan munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari sabab, mavjud huquq sohaslarining hech biri ularni to'laligicha tartibga sola olmaydi. Shuning uchun ham mazkur munosabatlar alohida, keng ko'lamli huquq sohasi yordamida tartibga solinishi lozim. Buning sababi esa Internetda vujudga keladigan munosabatlar boshqa bir huquq sohalari, xususan, konstitutsiyaviy, fuqarolik, jinoyat, mehnat, soliq, axborot, mualliflik huquqi va hokazolar bilan tartibga solinadigan turli xil masalalarga oid hisoblanadi.

Internetda vujudga keladigan munosabatlar huquq sohaslarining har biriga tegishli doiradagina tartibga solinadi. Shuning uchun ham bir huquq sohasi boshqa bir huquq sohasiga daxldor munosabatlarni tartibga sola olmaydi. Qayd etilganidek, Internetni tartibga solish va unda axborot almashinuvida yuzaga keladigan munosabatlarda xalqaro tajribani o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Internet sohasini tartibga solish hamda uni rivojlantirish uchun ushbu sohani qamrab oluvchi

xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qilish va ularni O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilinishi Internet tarmog‘ini hamda Internetda axborot olish va tarqatishda vujudga keladigan munosabatlarni tartibga solishda muhim o‘rin tutadi. Shu kabi huquqiy hujjatlar virtual makonda mavjud bo‘lgan muammolarga o‘z yechimini topishda amaliy yordam berishi kerak.

Mazkur xalqaro hujjatlarda:

- *Internetda vujudga keladigan munosabatlarga nisbatan qo‘llaniladigan asosiy tushunchalar boshqa bir davlatlarning qonun hujjatlarida har xil talqin qilinishining oldini olish uchun belgilab qo‘yilishi;*

- *davlatlar yurisdiksiyasi, shuningdek provayderlarning javobgarligi kabi muhim masalalar hal etilishi;*

- *Internet tarmog‘ida huquqbuzarliklar va jinoyatlarga qarshi xalqaro darajada kurashish;*

- *tarmoq xavfsizligini ta‘minlashning asosiy yo‘nalishlari belgilanishi lozim;*

- *Internetdan erkin foydalanish hamda Internet tarmog‘i xizmatlari operatorlarining faoliyatini asossiz ravishda cheklashga, shu jumladan axborot resurslaridan foydalanish jarayonida diskriminatsion tartibini o‘rnatishga yo‘l qo‘ymaslik shartlari;*

- *xalqaro axborot ayirboshlashdan foydalanish tartibi;*

- *Internetda xizmatlar erkin bozorini rivojlantirish shartlari, monopoliyalashuv va insofsiz raqobatga yo‘l qo‘yilmaligi belgilanishi lozim.*

Internetdan foydalanishda vujudga keladigan munosabatlar, ayniqsa axborot olishdagi mavjud hamda o‘z yechimini topishi lozim bo‘lgan masalalar xalqaro tajribani inobatga olgan holda qabul qilinadigan Internet to‘g‘risidagi qonun bilan tartibga solinishi lozim.

Ushbu qonun qabul qilinishi natijasida Internet tarmog‘idan foydalanish jarayonida vujudga keladigan munosabatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish, qaysi vaqtdan boshlab bunday majburiyatlar bajarilgan deb hisoblanishini belgilash va ular bajarilganini hujjatlar bilan tasdiqlash masalalari o‘z yechimini topadi.

Dissertantning fikricha, Internet to‘g‘risida qonun qabul qilinsa unda quyidagilar aks etishi lozim:

- *Internetni tartibga solishga qaratilgan xalqaro huquqiy hujjatlarning asosiy qoidalari;*

- *ushbu qonun qabul qilingan xalqaro huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilgan asosiy qoidalarni takrorlamaligi;*

- *Internetni tartibga solish sohasida mavjud va yaratiladigan qonun hujjatlarini yanada yaxshi qo‘llash uchun ularga aniqlik kiritishi;*

- *ko‘rsatilgan qonunlar keng ko‘lamli, ya‘ni turli huquq sohalarining normalaridan iborat bo‘lishi;*

- *qonun hujjatlari tuzilmasini o‘z ichiga olishi;*

- *Internet tarmog‘iga oid davlat siyosati asoslarini belgilaydigan qoidalarni o‘zida mujassamlashtirishi lozim.*

XULOSA

“Internetdan axborot olishning konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlari” mavzusida o‘tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar va qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir takliflar va tavsiyalar ilgari surildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Amaldagi milliy qonunchiligimizning tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Internet” atamasi ko‘plab normativ-huquqiy va qonunosti hujjatlarida qo‘llanilgan. Ba’zi hollarda Internet axborot-kommunikatsiya tarmog‘i, boshqalarida axborot almashinuvining texnik bir vositasi, yana ba’zi birlarida esa ommaviy axborot vositasi sifatida qaralgan. Milliy qonunchiligimizda “Internet” konsepsiyasining huquqiy ta’rifi yo‘q. Faqatgina ushbu axborot-kommunikatsiya tarmog‘ining ayrim xususiyatlari alohida qonunlar va qonunosti hujjatlarida uchraydi. Fuqarolarning Internet tarmog‘ida axborot olish va tarqatish huquqlarini amalga oshirishlari uchun muhim bo‘lgan ushbu hodisaga xos bo‘lgan fundamental funksiyalar va xususiyatlarni hisobga olgan holda “Internet” atamasiga huquqiy ta’rif berish zarur masala hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikda “Internet” tushunchasining mazmun-mohiyati to‘liq ochib berilmaganligi hamda olimlar tomonidan ushbu tushunchaga nisbatan aniq huquqiy ta’rif yo‘qligi sababli unga nisbatan quyidagi ta’rif ishlab chiqildi.

“Internet – elektron qurilmalarni bir biri bilan bog‘lagan holda turli platformalar hamda foydalanuvchilar o‘rtasida (rasm, video, matn ko‘rinishdagi) axborot va aloqa almashinuvini ta’minlovchi global raqamli infratuzilma”.

2. Amaldagi qonunchilikda “Axborot” tushunchasining mazmun-mohiyati to‘liq ochib berilmaganligi hamda olimlar tomonidan ushbu tushunchaga nisbatan aniq huquqiy ta’rif yo‘qligi sababli unga nisbatan quyidagi ta’rif ishlab chiqildi.

“Axborot – ma’lum tuzilish va semantik tarkibga ega bo‘lgan holda bilim, fakt, xabar yoki ko‘rsatmalarni yetkazib beruvchi ma’lumot yoki ma’lumotlardir. Axborot qabul qiluvchiga ta’sir qilish, uning holatini yoki xatti-harakatlarini o‘zgartirishga qodir bo‘lgan aloqaning asosiy elementi hisoblanadi. Axborot tushunchasiga uni uzatish, saqlash, qayta ishlash va foydalanish jarayonlari ham kiradi. Zamonaviy dunyoda axborot hayotning ko‘plab sohalarida, jumladan, fan, texnologiya, biznes, ta’lim va jamoatchilik bilan aloqalarda asosiy rol o‘ynaydi”.

3. Milliy qonunchiligimizga bugungi kunda davlat va jamiyat hayotiga katta ta’sir ko‘rsatayotgan hamda Internetda axborot olish va tarqatish masalasida yetakchilik qilayotgan “Ijtimoiy tarmoq” tushunchasiga huquqiy ta’rif berish zarur. Amaldagi qonunchilikda “Ijtimoiy tarmoq” tushunchasining mazmun-mohiyati to‘liq ochib berilmaganligi hamda olimlar tomonidan ushbu tushunchaga nisbatan aniq huquqiy ta’rif yo‘qligi sababli unga nisbatan quyidagi ta’rif ishlab chiqildi.

“Ijtimoiy tarmoq – bu ma’lumot va kontent almashish, muloqot qilish, shuningdek, bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lgan foydalanuvchilarning virtual hamjamiyatlarini yaratish uchun mo‘ljallangan veb-platforma yoki dasturdir. Ijtimoiy tarmoqlarning asosiy maqsadi Internet va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, masofa va vaqtdan

qat'iy nazar, odamlar o'rtasida muloqot va o'zaro munosabatlarni ta'minlashdan iborat".

4. Amaldagi qonunchilikda "Blogger" tushunchasining mazmun-mohiyati to'liq ochib berilmaganligi hamda olimlar tomonidan ushbu tushunchaga nisbatan aniq huquqiy ta'rif yo'qligi sababli unga nisbatan quyidagi ta'rif ishlab chiqildi.

"Blogger – bu ma'lumot berish, ko'ngil ochish, mavzularni muhokama qilish, xabardorlikni oshirish maqsadida blog yoki ijtimoiy media platformalarida maqolalar, postlar, videolar yoki audio materiallar ko'rinishida kontent yaratadigan va nashr etadigan shaxs. Bloggerlar turli mavzularda, jumladan, sayohat, pazandachilik, moda, ta'lim, texnologiya va boshqalar bilan shug'ullanishi mumkin. Ular auditoriya bilan faol muloqotda bo'ladilar, hamjamiyatlarni shakllantiradilar va o'z obunachilarining fikri va afzalliklariga ta'sir ko'rsatadilar".

5. Amaldagi qonunchilikda "Internet etikasi" tushunchasining mazmun-mohiyati to'liq ochib berilmaganligi hamda olimlar tomonidan ushbu tushunchaga nisbatan aniq huquqiy ta'rif yo'qligi sababli unga nisbatan quyidagi ta'rif ishlab chiqildi.

"Internet etikasi – axloqiy va ijtimoiy-madaniy jihatlarni hisobga olgan holda onlayn muhitda foydalanuvchilarning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi tamoyillar, qoidalar va qadriyatlar yig'indisidir. Internet etikasi o'z ichiga onlayn muhitda o'zaro hurmat normalarini, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, raqamli firibgarlikning oldini olish, kibexavfsizlikni qo'llab-quvvatlash, mualliflik huquqi va kontent qoidalariga rioya qilish standartlarini o'z ichiga oladi".

II. Normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar

5. Amaldagi qonunchiligimizda "Internet to'g'risida"gi qonun mavjud emasligini inobatga olgan holda tadqiqot ishimizga ilova sifatida "Internetdan foydalanish to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi.

6. O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasi to'qqizinchi xatboshisiga quyidagi norma bilan to'ldirish taklif qilinadi:

"Internet – elektron qurilmalarni bir biri bilan bog'lagan holda turli platformalar hamda foydalanuvchilar o'rtasida (rasm, video, matn ko'rinishdagi) axborot va aloqa almashinuvini ta'minlovchi global raqamli infratuzilma".

7. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasi ikkinchi xatboshisiga quyidagi tuzatishni kiritish maqsadga muvofiq:

"Axborot – ma'lum tuzilish va semantik tarkibga ega bo'lgan holda bilim, fakt, xabar yoki ko'rsatmalarni yetkazib beruvchi ma'lumot yoki ma'lumotlardir".

8. O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasi sakkizinchi xatboshisiga quyidagi tuzatishni kiritish maqsadga muvofiq:

"Blogger – bu ma'lumot berish, ko'ngil ochish, mavzularni muhokama qilish, xabardorlikni oshirish maqsadida blog yoki ijtimoiy media platformalarida

maqolalar, postlar, videolar yoki audio materiallar ko‘rinishida kontent yaratadigan va nashr etadigan shaxs”.

III. Huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar:

9. Milliy qonunchiligimizning amalda bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarida xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan fuqarolarning Internetdan axborot olish masalalari to‘liq o‘z aksini topmagan. Buning uchun mavjud sohaga doir qonunlarni xalqaro me‘yorlarga ko‘ra qayta ko‘rib chiqish va kerakli o‘zgartish, qo‘shimchalar kiritilishi taklif etiladi.

11. Fuqarolarimiz bugungi kunda Internetdan foydalanishda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, shuningdek, umume‘tirof etilgan xalqaro huquq normalarida qat‘iy belgilab qo‘yilgan haq-huquqlarini to‘liq anglab yetmaganlar. Buning uchun lozim darajada dastur ishlab chiqilib soha doirasida targ‘ibot ishlarini olib borish tavsiya etiladi.

12. Bugungi kunda davlat ommaviy axborot vositalari davlat va jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan aksariyat voqea-hodisalarni xolisona ommaga oshkor qilmaydi. Buning natijasida jamiyatning axborot erkinligi buziladi. Shuning uchun ham zamonaviy dunyoda erkin ommaviy axborot vositalarining o‘rni beqiyos. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, Internet ommaviy axborot vositalari faoliyatiga to‘sqinlik qilish holatlariga chek qo‘yilishi kerak.

13. Mamlakatimizda ayrim hollarda muayyan bir sohalarga taa‘luqli bo‘lgan saytlarni bloklash holatlari davom etmoqda. Ushbu holat esa Respublika fuqarolarining Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan axborot olishga bo‘lgan haq-huquqlarini chegaralab qo‘ymoqda. Amaldagi qonunchilikka binoan muayyan bir sohalarga oid saytlarni bloklanishiga chek qo‘yilishi kerak.

14. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida Internetdan axborot olish masalalariga oid normalar juda sayoz holatda. Buning uchun sohaga oid qonun normalarini qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

15. Ma‘lumki, Internet muayyan bir davlat tomonidan tartibga solinmaydi va nazorat qilinmaydi. Internet xalqaro xarakterga ega va unda ma‘lum bir “markaz” yo‘q. Ana shularni hisobga olgan holda butunjahon Internet tarmog‘ini tartibga solishning uchta muhim yo‘nalishini hisobga olish kerak, ya‘ni: xalqaro, milliy (davlat tomonidan) va tarmoq hamjamiyatlari tomonidan tartibga solinadi. Milliy qonunchiligimizda yuqorida ko‘rsatilgan tartibga solishning uchta yo‘nalishining kombinatsiyasi asosida qabul qilingan normalar asosida butunjahon Internet tarmog‘idan erkin foydalanish, ya‘ni undan ma‘lumot olish va tarqatishga keng imkoniyat berishini hisobga olgan holda normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish taklif etiladi.

16. Milliy qonunchiligimizda amalda bo‘lgan axborot sohasini tartibga soluvchi barcha qonunlar eskirganligi sababli ularni kodekslashtirish, ya‘ni kodeks shakliga keltirish taklif etiladi.

17. Internetdan foydalanishda vujudga keladigan munosabatlar, ayniqsa axborot olishdagi mavjud hamda o‘z yechimini topishi lozim bo‘lgan masalalar xalqaro tajribani inobatga olgan holda qabul qilinadigan Internet to‘g‘risidagi

qonun ishlab chiqilishiga ehtiyoj mavjud.

18. Internet to'g'risidagi qonun qabul qilinishi natijasida Internet tarmog'idan foydalanish jarayonida vujudga keladigan munosabatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish, qaysi vaqtdan boshlab bunday majburiyatlar bajarilgan deb hisoblanishini belgilash va ular bajarilganini hujjatlar bilan tasdiqlash masalalari o'z yechimini topishi maqsadga muvofiq.

19. Internetda vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga yo'naltirilgan qonunchilik bazasi tahlil etilgan holda, tegishli huquqiy asoslarning shakllanish bosqichlari va rivojlanish dinamikasini amaliyotga joriy etish lozim.

**SCIENTIFIC COUNCIL No. DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02
FOR AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
AT TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW**

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW

ILKHOMBEKOV JASURBEK ILKHOMBEK UGLI

**CONSTITUTIONAL AND LEGAL GUARANTEES FOR OBTAINING
INFORMATION FROM THE INTERNET**

12.00.02. – Constitutional law. Administrative law.
Finance and customs law

Doctoral (PhD) dissertation abstract on legal sciences

Tashkent – 2024

Theme of the doctoral dissertation (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under number No. B2022.4.PhD/Yu845.

The dissertation has been prepared at Tashkent State University of Law.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of the Scientific Council (www.tsul.uz) and on the Information and Education portal "ZiyoNet" (www.ziynet.uz).

Scientific Supervisor:

Akhmedov Davran Kuvanovich,
Doctor of Legal Science, Professor

Official opponents:

Ismailov Bakhodir Islamovich
Doctor of Legal Science, Professor

Abdullaev Javlonbek Murodjonovich
Candidate of Legal Science

Leading organization:

National Center for Human Rights of the
Republic of Uzbekistan

The defense of the dissertation will take place on June 22, 2024 at 10:00 at the meeting of the Scientific Council No. DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 at Tashkent State University of Law (Address: 100047, Tashkent city, Sayilgoh Street 35, Phone: (99871) 233-66-36; Fax: (99871) 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

The doctoral dissertation (PhD) can be reviewed at the Information resource center of Tashkent State University of Law (registered under № 1268). (Address: 100047, Tashkent city, Sayilgoh Street 35, Phone: (99871) 233-66-36; Fax: (99871) 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

The abstract of dissertation sent out on "7" June 2024

(mailing report N 10 on "7" June 2024).

R.R.Khakimov,
Chairman of the Scientific Council for
awarding scientific degrees, Doctor of
Legal Science, Professor

F.B.Makhmudov,
Secretary of the Scientific Council for
awarding scientific degrees, Doctor of
Philosophy in Legal Sciences (PhD),
Associate Professor

I.R.Bekov,
Deputy Chairman of the Scientific Seminar
under the Scientific Council for awarding
scientific degrees, Doctor of Legal
Science, Professor.

INTRODUCTION

The actuality and relevance of the dissertation theme. In the world, economy, politics, defense, education, culture and many other areas, as well as all social and political processes, are directly affected by the exchange of information. All this indicates that the modern world today cannot exist without information. In almost all countries of the world, analyzes of the legal aspects of the processes of freedom of speech, freedom of information, and the right to receive and distribute information are constantly being carried out. The norms of the right to freedom of speech are reflected in all international human rights documents, in particular, the Universal Declaration of Human Rights, the International Covenant on Civil and Political Rights, and the European Convention on Human Rights. In addition, the 2011 UN resolution recognized the right to use the Internet. The UN Human Rights Council also adopted a resolution on equalizing the use of the Internet with basic human rights. Today, despite the rapidly increasing importance of relations related to the activity of the Internet network in the life of the state and society, it remains one of the spheres that are not fully regulated by legal norms. One of the main tasks in this process is to find the necessary measure of legal regulation of these relations. Relations related to obtaining information should be regulated by the norms of constitutional law, as they have a direct impact on the implementation of the constitutional rights of citizens.

In the world today, the field of information and communication is rapidly developing. This development has a direct impact on the process of information exchange. As a hegemonic field in the process of information exchange, the Internet is rapidly expanding its position. So far, societies with an open policy in the field of information are more democratic, strong and developing in harmony with life than societies with restrictions in the field of information and surrounded by the problems of the world. It should be noted that the constitutional right to information is one of the basic rights of a person, and at the same time it manifests itself as an external expression of freedom of speech and freedom of choice of worldview and as their guarantee. According to statistics, as of March 1, 2024, there are 5.35 billion Internet users in the world today. So, now 66% of the world's population has the Internet. As of March 1, 2024, 5.04 billion users are using social networks, which is slightly less than 60% of the world's population. According to statistics, the number of Internet users in Uzbekistan was 12.1 million in 2016, and by the beginning of 2024, it has doubled, i.e. 33.81%, and the Internet coverage of residential areas of our country increased from 28% in 2016 to 98% in 2024.

